

# TTPUda Kitobsevarlar klubi o'z faoliyatini boshladi

Joriy yilning 20 dekabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining kutubxonasida kitobsevarlar klubining ramziy ochilishiga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy kecha o'tkazildi. Kechada kitobsevar talabalar, ustozlar va tashrif buyurgan mehmon – “Shuhrat” medali sohibasi, adabiy targ'ibot va tadbirlarni uyushtirish bo'limi boshlig'i, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Farog'at Musurmonovna Xudoyqulova qatnashishdi.





Madaniy-ma'rifiy kechani TTPU yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektori Ashurov Alisher Mavlonovich ochib berib, klub a'zolarini ushbu muhim sana bilan tabrikladi va o'z



nutqida kitobsevarlar klubini tashkillashtirilishi universitetimiz talabalari uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Klub tashkilotchisi va kecha moderatori akademik guruhlar tyutori Faxriddin O'rolovich Sattiev tadbir ishtirokchilariga kitobsevarlar klublarining shakllanish tarixi, afzalliklari va maqsadlari, klub a'zolarining uchrashuvlarini tashkillashtirish formatlari to'g'risida taqdimot namoyish qildi.





Shundan so'ng tabrik uchun so'z navbati tadbir mehmoni Farog'at Musurmonovna Xudoyqulovaga berildi. U kishi universitetimizda shunday klub tashkil qilinganligidan va



uning ochilish marosimida faxriy mehmon bo'lib turganligidan juda xursand ekanligini va o'zini xuddi yoshlik davridagi badiiy muhit og'ushiga tushib qolganday his qilayotganligini aytdi. So'zi davomida kitob o'qish asarda ilgari surilayotgan g'oyani qanday anglash mumkinligi haqida tushunchalar berib o'tdilar.

Akademik guruhlarini tyutori Eshonqulov Mirshod Ne'matovich ham kecha ishtirokchilariga kitob mutolaasidan kitobxonga bo'ladigan 10 ta asosiy foyda haqida taqdimot namoyish qilib berdi.





Kecha so'ngida ishtirokchilar har oyda bir yoki ikki marotaba o'qilgan asarlar muhokamasiga kutubxonamizda uchrashuvlar o'tkazib turishga kelishib olindi hamda tashrif buyurgan

mehmonga esdalik sovg'alari topshirildi.